



PEDAGOGLARNING KREATIVLIK IMKONIYATLARI VA ULARNING O'ZIGA XOSLIGI

Ubaydullayeva Fotima Baxriddinovna

Sharof Rashidov nomidagi Politexnika texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari va ularning o'ziga xosligi haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *kreativlik sifatlari, shaxs, tajribasiz, kreativ potentsiali, yangilik, maslahat berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, progress, muvafaqqiyat, mezonlar, induksiya, deduksiya, taqqoslash.*

Аннотация: *В данной статье говорится о творческих возможностях педагогов и их уникальности.*

Ключевые слова: *творческие качества, личность, неопытный, творческий потенциал, новаторство, консультирование, руководство, прогресс, успех, критерии, индукция, дедукция, сравнение.*

Abstract: *This article talks about the creative possibilities of pedagogues and their uniqueness.*

Key words: *qualities of creativity, individual, inexperienced, creative potential, innovation, counseling, guidance, progress, success, criteria, induction, deduction, comparison.*

So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman, Ken Robinson, Fisher, Frey, Begetto, Kaufman, Ali, Treffinger va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalaridan ko'rish mumkin.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Uning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'qituvchilar darslarda talabalarning erkin fikr yuritishlarini ta'minlay olishlari kerak. Xuddi shu holatdagina ularning fikrlari kreativlik kasb etadi. "Kreativlik darslarida talabalar birgina "to'g'ri" javobni izlash o'rniga o'zlarini erkin va hotirjam sezishlari va yuzaga kelgan muammolarga turli yechimlarni izlab topishlari maqsadga muvofiqdir. Qancha ko'p g'oya va fikrlarni o'rtaga tashlasalar, shuncha ko'p g'oyalar kreativ bo'ladi. O'quvchilar "Aqliy hujum" metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin.

Talabalarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish va keyinchalik ularni mustaqil "sayohatga" qo'yib yuborish ularda kreativ va, hattoki noaniq bo'lsada, turli g'oyalarni o'ylab topishga bo'lgan

intilishni kuchaytiradi. Chak Djons aytganiday “Qo‘rquv xissining yuzaga kelishi kreativlikka asoslangan har qanday ishda mavjud; havotir kreativlikning xizmatkoridir”. Talabalarni yo‘naltirish talabalarda o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lib qolmay, ularda avtomatik ravishda harakat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Yuqori sinf o‘quvchilari yoki yuqori kurslarining malakali talabalari jarayonni kichik alohida qism va bosqichlarga bo‘lib, yosh va tajribasiz talabalarni ruhlantirib, bu esa o‘zz o‘rnida kreativlik ko‘nikmasining shakllanishiga o‘z ta‘siri o‘tkazadi.

Pedagogning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o‘z ichiga oladi (1-rasm):



1-rasm. Pedagogik kreativlik potentsialining tarkibiy asoslari

O‘qituvchilar talabalarga manbalar bilan ta‘minlash, maslahat berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ularning progress va muvafaqqiyatini aniqlashda mezonlarni ishlab chiqishda murabbiy sifatida xizmat qiladilar. Shuningdek, yuqori kurs talabalari nafaqat ichki kreativlikni shakllantirish, balki kichik guruhlarda ishlash, kreativlik va sharhlar berishga qiziqтира oladilar (masalan: ong sayohati, tasavvur chegarasi, kelajakdagi muammolarni yechish, yangilik ochmoq va kashf etmoq)”. Kreativlik potentsialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- ✚ bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- ✚ masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish va hal qilish rejasini tuzish;
- ✚ masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo‘llash va masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- ✚ qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;
- ✚ masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- ✚ masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish;

Maqsadli motivli yondashuv- ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko‘zga tashlanadi.

Mazmunli yondashuv o‘zida pedagogik, psixologik, mahsus va innovatsion harakterdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni aks ettiradi.

Tezkor faoliyatli yondashuv – o‘zida ma‘lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shuningdek, mahsus, texnik usullarni ifodalaydi.

Refliksiv baholashda esa shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘zga tashlanadi.



Shuningdek, pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Natijada pedagog:

✚ ijodiy fikrlashga odatlanadi va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi;

✚ pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;

✚ pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirok etadi

Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi – kreativ potentsiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Kreativlik potentsialiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

➤ bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish va masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;

➤ masalani hal qilish rejasini tuzish, masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;

➤ masalani hal qilish usullarini tanlay olish va kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;

➤ qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;

➤ masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish;

Pedagoglarda kreativlik sifatleri, ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida amerikalik tadqiqotchi Patti Drepeau tomonidan taklif qilingan yo'llarda foydalanish kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, pedagoglarda kreativlik sifatlerini shakllantirisha ustuvor tamoyillar asosida ish ko'rish aniq maqsaga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini kafolatlaydi. Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg'ulotlar jarayonida pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining aniq mezonlar asosida aniqlash, daraja ko'rsatichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq va kamchiliklarni belgilash, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya / Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – Toshkent: "Fan van texnologiyalar", 2007. – 176 b.

2.Ivanov R.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya / Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 480 b.

3.Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'qituvchi" NM ijodiy uyi, 2008. – 496 b.

4.www.ziyonet.uz

5.www.google.uz.